

BALANDLIK MINTAQALARINING TIZIMLI TAHLILI

(O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati
baland tog‘ landshaftlari misolida)

Murtazayev B.Ch., Usmonov A., Safarov B.

Qarshi davlat universiteti (O‘zbekiston)

***Annotatsiya:** Maqolada balandlik mintaqalarining tarkib topishi va hududiy tabaqalashuv qonuniyatlari Qashqadaryo viloyatining baland tog‘ landshaftlari tizimi misolida tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** litogen omillar, gipsometrik sath, delyuvial, gidromorf, landshaft, gorizonta va vertikal zonallik, denudatsiya, tangi. eroziya.*

***Аннотация:** В статье на примере системы высокогорных ландшафтов Кашкадарьинской области анализируется состав высокогорных регионов и законы региональной стратификации.*

***Ключевые слова:** литогенные факторы, гипсометрический уровень, делювиальный, гидроморфный, ландшафт, горизонтальная и вертикальная зональность, денудация, запах. эрозия.*

***Annotation:** The article analyzes the composition of high-mountain regions and the laws of regional stratification using the example of the system of high-mountain landscapes of the Kashkadarya region.*

Key words: lithogenic factors, hypsometric level, deluvial, hydromorphic, landscape, horizontal and vertical zoning, denudation, smell. Erosion.

Qashqadaryo viloyati mamlakatimizdagi tog‘ hududlaridan biri bo‘lib, viloyatning Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Qamashi, G‘uzor, Dehqonobod va Chiroqchi tumanlaridagi ancha katta maydonlar tog‘ hududlariga mansub.

Qashqadaryo viloyatida tog‘ hududlarining maydoni 12,8 ming km², shundan dengiz sathidan 800 m yuqorida joylashgan “sof” tog‘ hududlarining maydoni 7,6 ming km² yoki viloyat jami maydonining 26% ini tashkil etadi. Baland tog‘ landshaft tizimining maydoni 69 ming ga. ni tashkil etadi.

Mavjud kartografik amaliyotda tog‘lar balandligiga ko‘ra: past (balandligi 200 m dan 800-1000 m gacha), o‘rtacha baland (700-800 m dan 2000 m gacha) va baland (2000 m dan ziyod) tog‘larga ajratiladi.

Qashqadaryo havzasining landshaft tuzilmasi ancha murakkab bo‘lib, bu erda zonallik sharoitlariga ko‘ra 4 ta landshaft mintaqasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu mintaqalarning har biri uzoq davom etgan geologik davrlarda shakllangan va o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, qonuniyatlari bilan bir qatorda, nafaqat landshaft xususiyatlariga, balki tizim xususiyatlariga ko‘ra ham, balandlik va pastliklarning o‘zaro munosabati bo‘yicha ham, xo‘jalik turlari, ixtisoslashuvi, kishilarning hayot sharoiti va yashash tarzi, ishlov beriladigan yerlar miqdori, aholi joylashuvidagi yaroqliligi, haydaladigan yerlari, iqlim sharoiti, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulayligi, tabiiy salohiyatiga ko‘ra ham bir-biridan farq qiladi.

Bu tizimlarning har biri uchun tabiatdan foydalanishning ham muayyan turlarini ko‘rish mumkin: Tekislik landshaft mintaqasining tarkib topishi va hududiy tabaqalashuvida litogen (geologik-geomorfologik) omil etakchi hisoblansa, tarqalishi va boshqa xususiyatlarida iqlim omilining tasiri gipsometrik sathga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Tekislik (cho‘l), past tog‘ va tog‘ oldi (adirlar) chala-cho‘l hamda o‘rtacha balandlikdagi tog‘ quruq dasht va o‘rmon landshaft tizimlari inson xo‘jalik faoliyati tasirida ancha kuchli o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, tabiiy – xo‘jalik ishlab chiqarish komplekslarining tarkib topganligi bilan ajralib turadi.

Baland tog‘li subalp va alp o‘tloq dasht landshaftlari tizimi (*yaylov*) Qashqadaryo havzasi doirasida Hisor tizmasining markaziy qismlari va ularga yaqin joylashgan tog‘larda, 2800-3000 m dan yuqorida tarqalgan. Mintaqa doirasida yonbag‘irlari tik, relyefi kuchli parchalangan ochiq qoyalar va toshloqzorlar ko‘p, bir-biridan chuqur daralari va vodiylari bilan ajralib turadigan Osmontarosh, Beshnov, Eshakmaydon, Xontaxti, Kurek va Maydanak tog‘lari umumiy nom bilan Yakkabog‘ tog‘lari (3500-3700 m) deb ataladi

Bu tog‘larni tashkil etuvchi tog‘ jinslari tokembriy, quyi va yuqori paleozoyga mansubdir. Ularning yuqori qismi denudatsiya jarayonlari tufayli yassilangan va platosimon yuzaga ega. Bu platosimon yuzada balandligi 2800-3000 m bo‘lgan o‘tkir qirrali tog‘ qoyalari (Arratosh, Maskara, Chakmonkuydi va b.) qad ko‘tarib turadi.

Yakkabog‘daryo va Katta O‘radaryoning yuqori oqimlari oralig‘idagi Chaqchar tog‘lari (Xo‘ja Axchaburun, 3700 m) asosan mezazoy ohaktoshlaridan tuzilgan. Qalin ohaktosh qatlami karst jarayonlari tufayli relyefni shu jarayonlar hosil qilgan shakllarning keng tarqalishiga olib kelgan. Qalaisheron tangisidagi mamlakatimizdagi eng uzun g‘orlardan biri “Amir Temur” g‘ori (815 m) shu hududda joylashgan. Baland tog‘lar uchun parchalanish chuqurligining kattaligi (1000 m dan ko‘proq), qadimiy va hozirgi muzliklarning faoliyatiga bog‘liq va bir qator xususiyatlar xos. Baland tog‘larda 3000 m dan 4000 m gacha bo‘lgan balandliklarda relyefning muzlik skulpturasi shakllari tarqalgan. Alp tipidagi relyef shakllariga ega bo‘lgan baland tog‘larda hozirgi muzliklar ham mavjud.

Qashqadaryo havzasi muzliklar eng kam bo‘lgan havzadir. Bu yerda jami 58 ta muzlik bo‘lib, ularning umumiy maydoni 20,8 km² ga teng. Ammo, keyinroq A.S.Shetinnikov (1998) tadqiqotlariga ko‘ra, Qashqadaryo havzasidagi muzliklarning maydoni 15,51 km² ni, soni 65 tani, boshqa ma‘lumotlarga ko‘ra esa 2004-yilda muzliklarning maydoni 14,45 km² ni, soni 60 tani tashkil etadi (Hikmatov F.Y. va b., 2010). Muzliklar sonining ortishi ularning erishi natijasida bir necha qismlarga bo‘linib ketishi bilan izohlanadi. Qashqadaryo havzasidagi muzliklar maydoni 2004-yilda 1957-yildagiga nisbatan 20% ga kamaygan.

Baland tog‘ landshaftlari tizimi uchun iqlimning quyidagicha ko‘rsatkichlari xarakterli: havoning o‘rtacha yillik harorati 4⁰ C dan past (o‘rtacha sutkalik harorat ko‘rsatkichi odatda turg‘un +5⁰ C dan past bo‘lgandan boshlab, yilning sovuq davri deb qobul qilingan (L.N. Babushkin va b.1985)) yanvarning o‘rtacha harorati – 6.8⁰ C, iyulning o‘rtacha harorati 14⁰ C, yillik yog‘inlarning miqdori 545-680 mm, namlanish koeffisienti 1,5 dan ortiq, vegetatsiya davri 50-110 kun. Namlik sharoitlari daraxtchil o‘simliklarning o‘sishi uchun qulay bo‘lsada, issiqlik sharoitlari daraxt va butalarning o‘sishi uchun sharoit yaratmaydi.

Havzadagi daryolarning to‘yinishida muzliklarning ahamiyati katta (Shults, Shalatova, 1959). Deyarli barcha daryolar havzaning baland tog‘laridan boshlanadi. Havza daryolarining barchasida tog‘ daryolarining tipik belgilariga ega. Ular tor va

chuqur va tik daralar hosil qiladi, oqimi tez, eroziya faoliyati kuchli. Havza tog‘li qismining oqim moduli har 1 km² maydon hisobida 6,2 l/s (Babushkin va b., 1985). Havzaning tog‘li qismida hammasi bo‘lib, 1,3 mlrd m³ miqdorida oqim hosil bo‘ladi.

Baland tog‘ landshaftlarining tuproqlarini tub jinslarning elyuvial, bazan esa delyuvial yotqiziqlarida vujudga keladigan och tusli qo‘ng‘ir tuproqlar tashkil etadi. Halqob joylarda gidromorf tuproqlar qatoriga mansub bo‘lgan torf botqoq tuproqlar ham uchraydi. Baland tog‘ landshaftlari uchun tog‘ kserofitlari va tog‘ o‘tloqlari xarakterli bo‘lib, quruqroq joylarda dasht o‘simliklari (subalp o‘tloqlari – yovvoyi suli, mushukquyruq, tipchoq va b.), namroq joylarda mezofil botqoqliklardan va har xil o‘tlardan iborat o‘tloqlar, o‘tloq – dashtlar ustunlik qiladi. Ayrim joylarda (subalp mintaqasining quyi qismidagi namroq joylarda) o‘rik archaning “orolchalar” ko‘rinishidagi archazorlari uchraydi. Alp o‘tloqlari uchun past bo‘yli har-xil o‘tlilar (erbaho, qoqio‘t, mayda gulli lola, binafsha, chuchmoma va b.) ning tarqalganligi xarakterlidir. Iqlim sharoitlariga bog‘liq holda tog‘li kserofitlari keng tarqalgan bo‘lib, o‘simliklar yostiqsimon ko‘rinishda o‘sadi. Baland tog‘ landshaftlari yozgi yaylovlar sifatida foydalaniladi. Ammo relyefning murakkab tuzilishi sababli baland tog‘ o‘tloqlarining yaylovlar sifatidagi ahamiyati uncha katta emas.

Bu erdagi alp va subalp o‘tloqlarining o‘simlik qoplaminin g asosini ko‘p yillik past bo‘yli o‘tchil o‘simliklar tashkil etadi. Subalp o‘tloqlarida yovvoyi suli, mushukquyruq, tipchoq va boshqa o‘simliklar o‘sadi. Erbaho, binafsha, chuchmoma va yostiqsimon o‘simliklar alp o‘tloqlarining asosini tashkil etadi. Bir yillik o‘simliklar yaylov mintaqasida o‘smaydi. Yaylov mintaqasining yaylovlik salohiyati (hosildorligi 5-7 s/ga) yoz oylarida mavsumiy mol boqish uchun yaroqlidir.

Qashqadaryo viloyatida baland tog‘ landshaft tizimi salohiyati samaradorligini oshirish va saqlab qolishning hududiy muammolari mavjud. O‘z echimini kutayotgan bu muammolar jumlasiga er resurslaridan yaylovlar sifatida foydalanishda tabiatni muhofaza qilish, yaylovlarning o‘simlik qoplamidagi o‘simliklarning bioekologik sharoitlarini etiborga olmasdan foydalanish, sath qiyaligi katta ekanligidan bu hududlarda eroziyaga qarshi maxsus choralar ko‘rish, baland tog‘ landshaftlarining

tabiiy salohiyatidan foydalanishda yaqin kelajakda tog‘ sayyohligi va sportini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Qashqadaryo viloyati tog‘ hududlarining landshaftlariga xos bo‘lgan o‘simliklar va hayvonlarni tabiiy-tadrijiy rivojlanishi, tabiiy landshaftlar tuzilmasining dinamikasi va rivojlanishini, fauna va florasining noyob va yo‘qolib borayotgan turlarini tarqalishi va genofondini aniqlab saqlash, ularning kartasini tuzish, bioekologik xususiyatlari borasidagi tadqiqotlarni kengaytirish, tabiatning noyob joylar shakllarini saqlab qolish maqsadida tog‘ landshaftlariga inson xo‘jalik faoliyati tazyiqini cheklash va tabiiy landshaftlarini ilmiy asosda o‘rganish maqsadida qo‘riqxonalar maydonini kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаев С.И., Ахмедов Р., Муртазаев В.С. Қашқадарё ҳавзаси тоғ ҳудудлари табиатидан фойдаланишнинг геоэкологик жиҳатлари. *«География ва барқарор ривожланиш» (конференция материаллари) Самарқанд, 2004*
2. Бабушкин Л.Н. Агроклиматическое районирование Средней Азии. Труды ТашГУ, вып. 236, Ташкент. 1964.
- 3..Vahobov H., va b. Umumiy er bilimi. T.: *“Bilim” nashriyoti, 2005. -256-b.*
4. Қашқадарьинская область. Т. 1. Природа. – Труды САГУ. Т.,1959
5. Муртазаев Б.Ч. Қашқадарё ҳавзаси тоғ ҳудудларининг ландшафт тuzилмаси. *Қарши давлат университети илмий-амалий конференция материаллари. Илмий тўплам-4. Қарши-2004*
6. Муртазаев Б.Ч. Қашқадарё вилоятининг ландшафт тuzилмаси. *Ўзбекистон География жамияти УШ-съезди. Тошкент-2007*
7. Муртазаев Б.Ч. К вопросу изучения физико-географических процессов Юго-Западного Гиссарского хребта напримере Яккабогского лесничества. *электронное научно-практическое периодическое издание «Экономика и социум» <http://www.iupr.ru>. ISSN 2225-1545 Выпуск №11(102) .(ноябрь, 2022).*
8. Нишанов С.А. Ландшафты Кашкадарьинской долины. Автореф. дис. канд. геогр. наук. -Баку, 1964. -25 с.

9. Усманова Р., Муртазаев Б.Ч. Научные подходы рекреационного природопользования на примере гор Западного Гиссара. *Актуальные научные исследования в современном мире. XI Международная научная конференция. Выпуск 11. Часть 3. Переяслав-Хмельницкий. 26-27 марта 2016 г.*
10. Hikmatov F.X. Suv resurslari miqdor va sifat jihatdan muhofaza qilish - *Geografiya va tabiiy resurslardan foydalanish. T., 2001.*